



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



SIRDARYO VILOYATIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI

DASTLABKI MA'LUMOT


2024- YIL YANVAR-AVGUST

Sirdaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari

2024-yil 1-sentabr holatiga qurilish korxonalari soni, birlikda

2024-yil 1-sentabr holatiga Sirdaryo viloyatida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 821 tani tashkil etdi

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 288 tasi yoki viloytdagi jami korxonalarining 35,1 % Guliston shahrida joylashgan.




| | |
|-------------------|-----|
| Guliston sh. | 288 |
| Sirdaryo tumani | 81 |
| Mirzaobod tumani | 76 |
| Yangiyer sh. | 67 |
| Guliston tumani | 65 |
| Boyovut tumani | 53 |
| Sayxunobod tumani | 43 |
| Oqoltin tumani | 40 |
| Xovos tumani | 38 |
| Sardoba tumani | 36 |
| Shirin sh. | 34 |



Shuningdek, Guliston shahrida 288 ta (viloyat bo'yicha ularning jami soniga nisbatan 35,1 %), Sirdaryo tumanida – 81 ta (9,9 %) qurilish korxonalari mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi

2024-yilning yanvar-avgust oylarida, Sirdaryo viloyatida jami 2 238,4 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 102,7 % ni tashkil etdi.



Maʼlumot uchun: qurilish faoliyati bu – oʻz kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.


* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik maʼlumotlar asosida qayta hisoblangan.

Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmi va 2023-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati, % da



2024-yilning yanvar-avgust oylarida hududlar kesimida xususan, Guliston shahri (649,0 mlrd. so'm), Mirzaobod tumani (446,2 mlrd. so'm) va Sirdaryo tumanida (313,3 mlrd. so'm) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

Qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati



- Bino va inshootlar qurish
- Fuqarolik obyektlarini qurish
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Qurilish ishlari hajmiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

65,5 %



1 466,2

mlrd. so'm

Bino va inshootlar qurish

29,2 %



654,6

mlrd. so'm

Fuqarolik obyektlarini qurish

5,3 %



117,6

mlrd. so'm

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

2024- yilning yanvar-avgust oylarida Sirdaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 65,5 % ulushni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 96,2 % ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 29,2 % ulushni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 120,0 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 5,3 % ulushni va 2023- yilning mos davriga nisbatan 105,9 % ni tashkil etdi.

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta quollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **70,3 %** yoki **1 574,8 mlrd. so‘m** qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **323,0 mlrd. so‘m**lik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **20,5 %** ni tashkil etdi.

20,5 %

323,0
mlrd. so‘m

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **1 097,6 mlrd. so‘m** yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **69,7 %** ni tashkil etdi.

69,7 %


1 097,6
mlrd. so‘m

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **154,2 mlrd. so‘m** yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **9,8 %** ni tashkil etdi.

9,8 %

154,2
mlrd. so‘m


Yangi qurilish ishlari hajmi va jami bajarilgan qurilish ishlaridagi ulushi



* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma‘lumotlar asosida qayta hisoblangan.

Hududlar kesimida yangi qurilish ishlari hajmi

2024-yilning yanvar-avgust oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm, Guliston shahri (510,1 mlrd. so'm), Mirzaobod tumani (335,9 mlrd. so'm), Sirdaryo tumani (203,1 mlrd. so'm) va Yangiyer shahrida (131,6 mlrd. so'm) qayd etildi.



Bino va inshootlar qurilishining jami hajmi – 1 466,2 mlrd. so'm

7,4 %

Yirik qurilish
tashkilotlari

107,8

mlrd. so'm

2023- yilning mos
davriga nisbatan

37,7 %

76,2 %

Kichik korxonalar
va mikrofirmalar

1 117,3

mlrd. so'm

2023- yilning mos
davriga nisbatan

105,9 %

16,4 %

Norasmiy sektor

241,1

mlrd. so'm

2023- yilning mos
davriga nisbatan

131,8 %

Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015-yilning 1-yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulot (mahsulot, ish, xizmat)lar statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq "**Qurilish faoliyati bo'yicha o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**" ko'rsatkichi qo'llaniladi.


Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 7,4 % ni tashkil etib, 2023-yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 11,5 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023-yilning mos davriga nisbatan 6,7 % punktga ko'payib 76,2 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2023-yilning mos davriga nisbatan 4,8 % punktga ko'payib, 16,4 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida bino va inshootlar qurilishi hajmi, mlrd. so'mda

Ma'lumot uchun: Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari-ning eng yuqori ulushi Yangiyer shahri (hududda bajarilgan qurilish ishlari-ning 84,9%), Guliston tumani (81,5%) va Sardoba tumani (80,1%) da kuzatildi.



Yangiyer shahri
84,9 %



Guliston tumani
81,5 %



Sardoba tumani
80,1 %


Korxonalar turlari kesimida fuqarolik obyektlarini qurish ishlari hajmlari



Fuqarolik obyektlari qurilishiga avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, quvur tarmoqlari va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 32,8% ni tashkil etdi va 2023-yilning mos davriga nisbatan 9,3% punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023-yilning mos davriga nisbatan 9,3% punktga kamayib 67,2% ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida fuqarolik obyektlarini qurish ishlari hajmi, mlrd. so'mda



Ma'lumot uchun: Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Mirzaobod tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 57,5 %), Guliston shahri (29,4 %) va Shirin shahri (27,4 %)da kuzatildi.



57,5 %
Mirzaobod tumani



29,4 %
Guliston shahri



27,4 %
Shirin shahri

Korxonalar turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati

0,5

mlrd. so'm

Yirik qurilish tashkilotlari

2023-yilning mos davriga nisbatan

-

117,1


mlrd. so'm

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023-yilning mos davriga nisbatan

105,9 %

0,4 %



Jamiga nisbatan ulushi

99,6 %




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 0,4 % ni tashkil etdi.

Qolgan 99,6 % kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 0,4 % punktga kamaydi.

Hududlar kesimida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'mda



11,5 %
Boyovut tumani




9,5 %
Oqoltin tumani



9,0 %
Xovos tumani

Qurilish ishlari hajmining tarkibi, mlrd. so'mda



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati



Yirik qurilish tashkilotlari

2023-yil mos davriga nisbatan **78,1** %



Kichik korxonalar va mikrofirmalar


2023-yil mos davriga nisbatan **105,9** %



Norasmiy sektor


2023-yil mos davriga nisbatan **131,7** %

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024-yilning yanvar-avgust oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 323,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 78,1 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 4,6 % ga kamayib, 14,4 % ni tashkil etdi.


Xo'jalik usulida bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.



* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma'lumotlar asosida qayta hisoblangan.

Hududlar kesimida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'mda

| | |
|-------------------|-------|
| | 135,6 |
| Shirin sh. | 106,3 |
| Mirzaobod tumani | 24,4 |
| Sirdaryo tumani | 17,8 |
| Guliston sh. | 11,2 |
| Xovos tumani | 9,0 |
| Sayxunobod tumani | 7,9 |
| Oqoltin tumani | 4,4 |
| Guliston tumani | 3,7 |
| Boyovut tumani | 3,0 |
| Sardoba tumani | |



Jamiga nisbatan ulushi



Shirin shahri



Mirzaobod tumani




Xovos tumani

Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Shirin shahrida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 77,3%), Mirzaobod tumanida (23,8%) va Xovos tumanida (14,8%) qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining jamiga nisbatan ulushi




2024-yilning yanvar-avgust oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 74,8 % to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 2,0 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 105,9 % ni tashkil etgan holda 1 674,2 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

oldingi yilning mos davriga nisbatan

100,5 %



oldingi yilning mos davriga nisbatan

87,2 %



* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma'lumotlar asosida qayta hisoblangan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hududlar kesimida hajmi, mlrd. so'm



Jamiga nisbatan ulushi



Yangi-Yer shahri



Sardoba tumani




Guliston shahri

Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Yangi-Yer shahri (hududdagi qurilish ishlarining 96,0%), Sardoba tumani (87,5%) va Guliston shahriga (84,3%) to'g'ri keldi.

Norasmiy sektorda bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hajmining jamiga nisbatan ulushi



Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 10,8% ni yoki 241,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 131,7% ni tashkil etdi. Shundan 152,5 mlrd. so'mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 168,6% ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 1,7 mlrd. so'mni va 16,3% ni, yakka tartibdagi turar-joylarni ta'mirlash ishlari 87,0 mlrd. so'mni va 104,8% ni tashkil etdi.

oldingi yilning mos davriga nisbatan
105,0 %

oldingi yilning mos davriga nisbatan
114,4 %

139,4
mlrd. so'm

159,6
mlrd. so'm

126,3
mlrd. so'm

165,3
mlrd. so'm

241,2
mlrd. so'm

2020

2021

2022

2023*

2024

75,0 %

oldingi yilning mos davriga nisbatan

71,0 %

oldingi yilning mos davriga nisbatan

131,7 %

oldingi yilning mos davriga nisbatan

* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma'lumotlar asosida qayta hisoblangan.

Norasmiy sektorda bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Hududlar kesimida norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'mda

| | |
|-------------------|------|
| | 84,4 |
| Guliston sh. | 52,9 |
| Sirdaryo tumani | 20,4 |
| Xovos tumani | 19,8 |
| Boyovut tumani | 11,9 |
| Guliston tumani | 11,3 |
| Sayxunobod tumani | 10,9 |
| Sardoba tumani | 10,1 |
| Oqoltin tumani | 9,1 |
| Mirzaobod tumani | 8,0 |
| Yangiyer sh. | 2,4 |
| Shirin sh. | |



84,4 mlrd. so'm
Guliston shahri



52,9 mlrd. so'm
Sirdaryo tumani




20,4 mlrd. so'm
Xovos tumani

Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Guliston shahrida (84,4 mlrd. so'm), Sirdaryo tumanida (52,9 mlrd. so'm) va Xovos tumanida (20,4 mlrd. so'm) qayd etildi.

Davlat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Hududlar kesimida davlat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi

Davlat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi, mlrd. so'm




● mlrd. so'm


* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma'lumotlar asosida qayta hisoblangan.

Ma'lumot uchun: davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Xovos tumanida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 14,8%), Oqoltin tumanida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 13,0%) va Sayxunobod tumanida (ushbu hududdagi umumiy qurilish ishlarining 13,0 %) qayd etildi.

Hududlar kesimida nodavlat tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari




2024-yil yanvar-avgust **2 148,9** mlrd. so‘m



Ma'lumot uchun: nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Yangiyer shahrida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 100,0 %), Shirin shahrida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 100,0 %) va Guliston shahrida (ushbu hududdagi umumiy qurilish ishlarining 99,0 %) qayd etildi.

● mlrd. so‘m Jamiga nisbatan ulushi, mlrd. so‘m



* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma'lumotlar asosida qayta hisoblangan.

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Kapital qurilishga pudrat shartnomasi – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

Qurilish tashkilotlari – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlarini o'z ichiga oladi.